



ISSN 2181-9130

Doi Journal 10.26739/2181-9130

ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

11 ЖИЛД, 2/2 СОН

ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 11, НОМЕР 2/2

JOURNAL OF LAW RESEARCH

VOLUME 11, ISSUE 2/2



ТОШКЕНТ-2026

ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF LAW RESEARCH

№2/2 (2026) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9130-2026-2/2>

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Abdurasulova Qumriniso Raimqulovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Fayziev Shoxrud Farmonovich
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

12.00.01 - ДАВЛАТ ВА ҲУҚУҚ НАЗАРИЯСИ ВА ТАРИХИ. ҲУҚУҚИЙ ТАЪЛИМОТЛАР ТАРИХИ / ТЕОРИЯ ПРАВА И ГОСУДАРСТВА, ИСТОРИЯ ПРАВОВЫХ УЧЕНИЙ / THEORY OF LAW AND STATE, HISTORY OF LEGAL DOCTRINES

Boboyev Halimboy Boboyevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Ahmedshaeva Mavlyuda Axatovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Adilxodjayeva Surayyo Maxkamovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Sattorov Abdug'afvor
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Yosuke Shamoto
yuridik fanlar doktori, professor (Yaponiya)
Umarxonova Dildora Sharipxonovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Nematov Jo'rabek Nematilloevich
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

12.00.02 - КОНСТИТУЦИОННИЙ ҲУҚУҚ, МАЪМУРИЙ ҲУҚУҚ, МОЛИЯ ВА БОЖХОНА ҲУҚУҚИ / КОНСТИТУЦИОННОЕ ПРАВО; АДМИНИСТРАТИВНОЕ ПРАВО; ФИНАНСОВОЕ ПРАВО / CONSTITUTIONAL LAW; ADMINISTRATIVE LAW; FINANCIAL RIGHT

Malikova Gulchexra
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Xusanov Ozod Tillabayevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Selimanova Svetlana Mixaylovna
yuridik fanlar doktori (O'zbekiston)

Xvan Leonid Borisovich
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)
Peshkova Xristina Vyacheslavovna
yuridik fanlar doktori, dotsent (Rossiya)
Sung Un Lee
yuridik fanlar doktori, professor (Janubiy Koreya)

12.00.03 - ФУҚАРОЛИК ҲУҚУҚИ. ТАДБИРКОРЛИК ҲУҚУҚИ. ОИЛА ҲУҚУҚИ. ХАЛҚАРО ХУСУСИЙ ҲУҚУҚ / ГРАЖДАНСКОЕ ПРАВО; ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЕ ПРАВО; СЕМЕЙНОЕ ПРАВО; МЕЖДУНАРОДНОЕ ЧАСТНОЕ ПРАВО / CIVIL LAW; BUSINESS LAW; FAMILY LAW; PRIVATE INTERNATIONAL LAW

Oqyulov Omonboy
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Ro'zinazarov Shuhrat Nuraliyevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Ruziyev Rustam Jabborovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Borotov Mirodiljon Xomudjonovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Toshev Boboqul Norqobilovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Shomuxamedova Zamira Shoislamovna
yuridik fanlar doktori, (O'zbekiston)
Ahmad Issa Altweissi
yuridik fanlar doktori, professor (Iordaniya)
Mexmonov Kambarriddin Miradxamovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

12.00.04 - ФУҚАРОЛИК ПРОЦЕССУАЛ ҲУҚУҚИ. ХЎЖАЛИК ПРОЦЕССУАЛ ҲУҚУҚИ. ҲАҚАМЛИК ЖАРАЁНИ ВА МЕДИАЦИЯ / ГРАЖДАНСКОЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО; ХОЗЯЙСТВЕННОЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО; АРБИТРАЖНЫЙ ПРОЦЕСС И МЕДИАЦИЯ / CIVIL PROCEDURE LAW; ECONOMIC PROCEDURAL LAW; ARBITRATION PROCESS AND MEDIATION

Esanova Zamira Normurodovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Mamasidiqov Muzaffar Musajonovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Jason A.
Kanton Federal sud markazi (AQSH)
Borut Strazisar
Yuridik bo'lim boshlig'i (Sloveniya)

12.00.05 - МЕХНАТ ҲУҚУҚИ. ИЖТИМОИЙ ТАЪМИНОТ ҲУҚУҚИ / ТРУДОВОЕ ПРАВО; ПРАВО СОЦИАЛЬНОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ / THE LABOR LAW; SOCIAL SECURITY LAW

Usmanova Muborak Akmalxonovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Gasanov Mixail Yuriyevich
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)
Sattorova Gulnoza Djurakulovna
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

Murodova Gulnora
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)
Denisov Gleb
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)

Fayziyev Shuxrat Xasanovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Usmonov Muhammadi Bahridinovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Xolmuminov Juma
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Jo'rayev Yuldash Achilovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Nurmatov Mirg'olib Mirzayevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Po'latov Baxtiyor Xalilovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Salomov Baxrom Salomovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Osmonaliyev Qayrat
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Mirzayev Aziz
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Aleksey Kibalnik
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)
Kudryavtsev Vladislav Leonidovich
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)
Sergey Shoshin
yuridik fanlar doktori, dotsent (Rossiya)
James B.
Eaglin Federal sud markazi (AQSH)

Rustambayev Mirzayusup Hakimovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Zufarov Rustam Axmedovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Kabulov Rustam
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Rajabova Mavjuda Abdullayevna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Ismailov Isomiddin
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Hamidov Nurmuhammad Orif o'g'li
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (O'zbekiston)
Yuldoshev Rifat Raxmadjonovich
yuridik fanlar doktori, professor (Tojikiston)
Djansarayeva Rima Ernatovna
yuridik fanlar doktori, professor (Qozog'iston)
Yelena Antonyan Aleksandrovna
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)
Matthew Light
yuridik fanlar doktori, professor (Kanada)
Qo'shayev Nurali Mahmudovich
yuridik fanlar nomzodi, dotsent (O'zbekiston)


Inog'omjonova Zumratxon Fatxullayevna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Pulatov Yuriy Safiyevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
To'laganova Gulchehra Zaxitovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Muxiddinov Faxriddin Muxiddinovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Mirzov Davron Miragzamovich
yuridik fanlar doktori (O'zbekiston)
Rijakov Aleksandr Petrovich
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)

Stoyko Nikolay Genadyevich
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)
Iskandarov Zayniddin
yuridik fanlar doktori, professor (Tojikiston)
Sergey Pen
yuridik fanlar doktori, professor (Qozog'iston)
Aleksey Purs
yuridik fanlar doktori, dotsent (Belarus)
Jurgen Maurer
yuridik fanlar doktori, professor (Germaniya)
Kevin Curtin
yuridik fanlar doktori, professor (AQSH)

Ismoilov Bahodir Islamovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Matkarimova Gulchehra Abdusamatovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Yuldasheva Govxerjan
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Alexander Trunk
yuridik fanlar doktori, professor (Germaniya)


1. Мухамедов Хайдарали Мелиевич ЎРТА АСРЛАР ҲУҚУҚИЙ ҚАДРИЯТЛАРИНИНГ ЗАМОНАВИЙ ҲУҚУҚҚА ТАЪСИРИ: ТАРИХИЙ-ҲУҚУҚИЙ ТАҲЛИЛ.....	5
2. Мирзаев Файзулла Ибодуллаевич ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ИНСТИТУЦИОНАЛ ИСЛОҲОТЛАР ШАРОИТИДА ЖИНОИЙ ДАРОМАДЛАРНИ ЛЕГАЛЛАШТИРИШГА ҚАРШИ КУРАШИШНИ ҲУҚУҚИЙ ЖИҲАТДАН ТАЪМИНЛАШ МАСАЛАЛАРИ.....	14
3. Авлиякулова Матлуба Авазовна КОРПОРАТИВ ҲУҚУҚИЙ МУНОСАБАТЛАРНИ ҲУҚУҚИЙ ТАРТИБГА СОЛИШ БИЛАН БОҒЛИҚ МИЛЛИЙ ҚОНУНЧИЛИКНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ МАСАЛАЛАРИ.....	22
4. Baratov Mirodiljon Xomudjonovich, Akramxodjaye Bori Toxtaxodjaye Bori TURISTIK MAHSULOTNING XUSUSIYATLARI VA BU SOHADAGI RAQOBATBARDOSHLIK.....	29
5. Ergasheva Shohista O'ktam qizi KRIPTOVALYUTALARNING TRANSFER JARARAYONIDA QO'LLANILADIGAN HUQUQ MASALASI.....	39
6. Абжалов Абдижаббор Махаммадиевич ПРОФИЛАКТИКА ИНСПЕКТОРИНИНГ ЖАМОАТ ИНСТИТУТЛАРИ БИЛАН ҲАМКОРЛИГИ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШНИНГ ҲУҚУҚИЙ ВА ТАШКИЛИЙ МЕХАНИЗМЛАРИ.....	46
7. Ғайбуллаев Фаррух Юлдашевич ПРОКУРАТУРА ОРҒАНЛАРИ ФАОЛИЯТИДА ЖАМОАТЧИЛИК НАЗОРАТИ ВА УНИНГ ҲУҚУҚИЙ ЧЕГАРАЛАРИ.....	54
8. Matkarimov Qudrat Qalandarovich ISHKI ISHLAR ORGANLARIDA QONUNLAR IJROSI USTIDAN PROKUROR NAZORATINING O'ZIGA HOS HUSUSIYATLARI.....	62
9. A'zamov Akbarxon Izzatbek o'g'li QASDDAN TO'LOVGA QOBILİYATSIZLIKKA OLIB KELISHNING JINOIY-HUQUQIY JINATLARI, O'XSHASH JINOYATLARDAN FARQLI TOMONLARI HAMDA XORIJIY TAJRIBA.....	70
10. Хамидов Нурмухаммад Ориф угли ТОРГОВЛЯ ЛЮДЬМИ КАК ФОРМА ТРАНСНАЦИОНАЛЬНОЙ ОРГАНИЗОВАННОЙ ПРЕСТУПНОСТИ: ПОНЯТИЕ, СОЦИАЛЬНАЯ ОПАСНОСТЬ И УГОЛОВНО-ПРАВОВЫЕ АСПЕКТЫ ПРОТИВОДЕЙСТВИЯ.....	77
11. Kurbanov Ma'rufjon Mamadaminovich SUN'IY INTELLEKTDAN JINOIY MAQSADDA FOYDALANISHNING JINOYAT-HUQUQIY TAVSIFI, IJTIMOIY-HUQUQIY MONIYATI.....	85
12. Насруллаев Фирдавс Сухробович ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИДА ЭКСТРАДИЦИЯ ЖАРАЁНИДА ИЧКИ ИШЛАР ВАЗИРЛИГИНИНГ ИНСТИТУЦИОНАЛ ЎРНИ ВА ИДОРАЛАРАРО ҲАМКОРЛИК МАСАЛАЛАРИ.....	92



Ergasheva Shohista O'ktam qizi,
Toshkent davlat yuridik universiteti doktoranti
E-mail: shohistaabdurahmonova09@gmail.com

KRIPTOVALYUTALARNING TRANSFER JARARAYONIDA QO'LLANILADIGAN HUQUQ MASALASI

For citation: Ergasheva Shokhista Uktam kizi. LEGAL ISSUE APPLICABLE TO CRYPTOCURRENCY TRANSFER PROCESS. Journal of Law Research. 2026, 11 vol., issue 2/2.

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.18839292>

ANNOTATSIYA

Raqamli aktivlarni, shuningdek, kriptovalyutalarni transferi ya'ni o'tkazish jarayoni turli huquqiy masalalarni yuzaga keltiradi. Shulardan biri, blokcheyn orqali amalga oshiriladigan o'tkazmalarga nisbatan qo'llaniladigan huquqni aniqlash masalasidir. Xalqaro xususiy huquqning an'anaviy tushunchalari va yondashuv usullari blokcheyn texnologiyasi tomonidan qo'llaniladigan huquqni belgilashda ko'plab qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Vositalarsiz (disintermediation) tuzilish blokcheyn asosida ishlaydigan tizimlarda xizmat ko'rsatuvchi provayder yoki "asosiy ijrochi"ni aniqlashni qiyinlashtiradi. Ta'qsimlangan (distributed) reyestrning tabiati esa ushbu reyestr yoki blokcheyn hamda unda raqamli tarzda qayd etilgan aktivni real dunyodagi muayyan joyga mansub qilishda muammolarni yuzaga keltiradi, shuningdek, ma'lum bir joy bilan aloqadorlikning markazlashmaganligini ko'rsatadi. Blokcheyn asosidagi tizimlarda psevdonimlik ishtirokchilarni hamda ularning joylashuvini aniqlashda ko'plab qiyinchiliklar tug'diradi. Ushbu maqolaning maqsadi – kriptovalyutalar blokcheyn orqali o'tkazilishi misolida raqamli aktivlarni (raqamli) o'tkazishga nisbatan qo'llaniladigan huquq bilan bog'liq asosiy masalalarni o'rganishdir.

Kalit so'zlar: raqamli aktiv, kriptovalyutalar, blokcheyn, taqsimlangan reeestr texnologiyasi, amaldagi qonunchilik, xalqaro xususiy huquq

Эргашева Шохиста Уктам кизи,
Докторант Ташкентского государственного юридического университета
E-mail: shohistaabdurahmonova09@gmail.com

ПРАВОВЫЕ ВОПРОСЫ, ПРИМЕНИМЫЕ К ПРОЦЕССУ ПЕРЕВОДА КРИПТОВАЛЮТЫ

АННОТАЦИЯ

Процесс передачи цифровых активов, включая криптовалюты, порождает множество правовых вопросов. Один из них — вопрос определения права, применимого к передачам, осуществляемым через блокчейн. Традиционные концепции и подходы международного частного права сталкиваются со многими трудностями при определении права, применимого к технологии блокчейн. Структура дезинтермедиации затрудняет идентификацию поставщика услуг или «принципал-исполнитель» в системах на основе блокчейна. Природа

распределенного реестра создает проблемы в отнесении этого реестра или блокчейна и цифрового актива, записанного в нем, к конкретному месту в реальном мире, а также указывает на децентрализацию связи с конкретным местом. Псевдонимия в системах на основе блокчейна создает множество трудностей в идентификации участников и их местонахождения. Цель данной статьи — рассмотреть основные вопросы, связанные с правом, применимым к передаче цифровых активов (цифровых), в случае передачи криптовалют через блокчейн.

Ключевые слова: цифровые активы, криптовалюты, блокчейн, технология распределенных реестров, действующее законодательство, частное международное право

Ergasheva Shokhista Uktam kizi,

Doctoral student of Tashkent State University of Law

E-mail: shohistaabdurahmonova09@gmail.com

LEGAL ISSUE APPLICABLE TO CRYPTOCURRENCY TRANSFER PROCESS

ANNOTATION

The process of transferring digital assets, including cryptocurrencies, raises various legal issues. One of these is the issue of determining the law applicable to transfers made via blockchain. Traditional concepts and approaches of private international law face many difficulties in determining the law applicable to blockchain technology. The disintermediation structure makes it difficult to identify the service provider or “principal executor” in blockchain-based systems. The nature of the distributed registry creates problems in attributing this registry or blockchain and the asset digitally recorded on it to a specific place in the real world, and also indicates the decentralization of the connection to a specific place. Pseudonymity in blockchain-based systems creates many difficulties in identifying participants and their locations. The purpose of this article is to examine the main issues related to the law applicable to the transfer of digital assets (digital), in the case of the transfer of cryptocurrencies via blockchain.

Keywords: digital asset, cryptocurrencies, blockchain, distributed ledger technology, applicable law, private international law

“Raqamli aktivlar” atamasi odatda texnologiya qo‘llanilishi natijasida vujudga kelgan turli xil aktiv turlarini, jumladan, kriptovalyutalarni o‘z ichiga oluvchi keng qamrovli tushunchadir. Masalan, Xalqaro xususiy huquqni unifikatsiya qilish instituti (UNIDROIT) tomonidan ishlab chiqilgan “Raqamli aktivlar va xususiy huquq bo‘yicha UNIDROIT tamoyillari” loyihasining 2(2)-tamoyiliga muvofiq, raqamli aktiv “nazorat obyekti bo‘lishi mumkin bo‘lgan elektron yozuv” sifatida ta’riflanadi.[1] Ushbu loyiha doirasida ommaviy blokcheynga asoslangan kriptovalyuta ham raqamli aktiv sifatida e’tirof etiladi.[2]

Angliya va Uels Qonunchilik komissiyasi esa raqamli aktivlar sohasidagi qonunchilik islohoti loyihasi doirasida chop etilgan yakuniy hisobotida raqamli aktivni “raqamli yoki elektron shaklda ifodalangan har qanday aktiv” sifatida belgilab, ushbu atamani keng ma’noda qo‘llagan.[3] Shuningdek, Komissiya keng qamrovli raqamli aktivlar toifasiga “kripto-tokenlar”ni ham kiritgan. Bu toifaga, shuningdek, raqamli fayllar, raqamli yozuvlar, elektron pochta hisoblari, domen nomlari, onlayn o‘yinlardagi raqamli aktivlar, raqamli uglerod kreditlari hamda NFTlar kiradi.[4]

Yuqorida aytganimizdek, raqamli aktivlar tushunchasining keng qamrovli bo‘lib, boshqa ayrim raqamli aktiv turlariga nisbatan kriptovalyutalarning paydo bo‘lishi nisbatan yangi tushuncha bo‘lib, ular ilk bor 2009-yilda to‘lovlar uchun yangi texnologiya — ya’ni blokcheyn asosidagi birinchi kriptovalyuta, Bitcoin shaklida joriy etilgan. Aytish mumkinki, **taqsimlangan reyestr texnologiyasi (distributed ledger technology, DLT)** turi sifatida blokcheynning joriy etilishi, kriptovalyutalarning o‘zidan ham ko‘ra inqilobiy ahamiyatga ega bo‘ldi.

Blokcheyn butun dunyo bo‘ylab (**pseudonymous**) aniq shaxsi noma’lum ishtirokchilar o‘rtasida butunlay tengma-teng (**peer-to-peer**) shaklda, markaziy ishonchli organ aralashuvisiz, ya’ni

tomonlar o'rtasida bitimlarni bajarish va ularni markazlashgan reyestrlarga ro'yxatga olishda vositachilik qiluvchi subyekt ishtirokisiz ishlaydigan, to'laqonli global tizimlarni yaratish imkonini berdi. **Blokcheyn** asosidan ishlaydigan bunday tizimlarda vositachilik (**intermediation**) o'rnini bevositachilik ya'ni (**disintermediation**) bilan almashtirildi, **markaziy reyestrlar** esa butun dunyo bo'ylab tizim ishtirokchilari o'rtasida **taqsimlangan va markazlashmagan reyestrlar** bilan almashtiriladi. Tabiiyki, blokcheyn asosidagi tizimlarda tartibga soluvchi qonun ham "kod" ya'ni texnologiya bilan almashtiriladimi, degan savol ilgari suriladi.[5] Vaqt o'tishi bilan xalqaro xususiy huquqda, blokcheyn qo'llanishidan kelib chiqqan muammolar paydo bo'lishi natijasida shu ma'lum bo'ldiki, qonun butunlay kod ya'ni texnologiya bilan almashtirilmaydi, biroq bu sezilarli darajada qiynchiliklarga olib keladi.[6] Bu holat ayniqsa, an'anaviy ravishda "lokalizatsiya" ya'ni joylashuvga asoslangan kollizion bog'lovchilardan foydalanadigan xalqaro xususiy huquqqa nisbatan kerakli nuqta hisoblanadi. Murakkab masalalardan biri shuki, bunday to'liq markazlashmagan va taqsimlangan blokcheyn asosidagi tizimlarda, odatda joylashuvi noma'lum bo'lgan va **pseudonymous** ya'ni shaxsi noma'lum bo'lgan taxallus ostidagi ishtirokchilar ishtirok etayotgan sharoitda, xalqaro xususiy huquqning an'anaviy uslublari qanday ishlashi dolzarb masaladir. Shu bois, kriptovalyutalarga oid xalqaro xususiy huquqning asosiy masalalaridan biri — ularning blokcheynda amalga oshiriladigan o'tkazmalariga nisbatan **qo'llaniladigan huquqni** aniqlashdir. Mazkur masala Xalqaro Xususiy Huquq bo'yicha Gaaga konferensiyasi (HCCH) tomonidan ham raqamli iqtisodiyot, jumladan, DLT va uning ayrim qo'llanilishlariga oid xalqaro xususiy huquqiy oqibatlar doirasidagi ishlarida ham qayd etilgan.[7]

Raqamli aktivlarni bunday o'tkazish usuli ba'zan "**on-chain**" o'tkazma deb ataladi, ya'ni tranzaksiya kriptovalyuta tizimi ichida, to'g'ridan-to'g'ri reyestrda yoki blokcheynda bajariladi va qayd etiladi.[8] Ushbu usulda bitim blokcheynda tarmog'ida yaratiladi va bloklar zanjiriga yozib qo'yiladi va bir qancha afzalliklarga ega bo'lib, transferlar shaffof, o'zgarmas, markazsiz bo'ladi.[9] Kriptovalyutalarning blokcheyn asosidagi tizimlarda o'tkazmalariga nisbatan **qo'llaniladigan huquqni** aniqlash, odatdagi kollizion normalar asosida murakkab kechadi. Buning sababi — bunday tizimlarning markazlashmagan va tizimlarda bog'lanish nuqtalarining yetarlicha jamlanmaganligi va ishtirokchilar shaxsining noma'lumligi (pseudonimligi)dir. Bundan tashqari, tranzaksiyalar ham shartnomaviy, ham mulkiy masalalarni keltirib chiqarishi mumkin va ular, odatda, bir xil qonunchilik bilan tartibga solinmasligi mumkin. Kriptovalyutalarni blokcheyn orqali o'tkazish jarayonida mulkiy va majburiy huquqlar o'rtasidagi chegaralar sezilarli darajada mavhumlashadi, chunki bunday raqamli o'tkazma moddiy narsaning o'zini o'tkazishni nazarda tutmaydi. Shu sababli, qo'llaniladigan huquqni aniqlashda huquqiy tasniflash jarayoni ham murakkablashadi.

Ushbu **maqolaning maqsadi** – kriptovalyutalarni blokcheyn orqali o'tkazishga nisbatan qo'llaniladigan huquqni tahlil qilishdir. Biroq, kriptovalyuta tizimlari o'zaro bog'langan va ichki yopiq tizim bo'lib, unda shartnomaviy hamda mulkiy huquqiy masalalar o'rtasidagi chegaralar aniq ajralmaganligi sababli, bunday blokcheyn orqali amalga oshiriladigan kriptovalyuta o'tkazmalaridan kelib chiqadigan barcha masalalar ya'ni shartnomaviy va mulkiy huquqiy masalaga bitta qo'llaniladigan huquqni tatbiq etish uchun asos bo'la olmaydi. Maqolada, avvalo, blokcheyn texnologiyasiga asoslangan kriptovalyutalarning paydo bo'lishini ko'rib chiqiladi, shundan so'ng ularning blokcheyn orqali o'tkazilishi masalasiga o'tadi. Shu asosda, keyingi bosqichda kriptovalyutalar tranzaksiyasining xalqaroligi ya'ni xalqaro tusga ega bo'lish, masalani tavsiflash (xarakterizatsiya) ya'ni masalaning huquqiy tabiati hamda mohiyatini belgilashdir va qo'llaniladigan huquqni aniqlash masalalarini tahlil qiladi. Bu jarayonda yagona yondashuv (**unitary approach** – barcha munosabatlarga bitta huquqni qo'llash) va segmentli yondashuv (**segmented approach** – turli masalalarga turli huquqni tatbiq etish) o'rtasidagi farqlar yoritiladi. Shu bilan birga, zarur holatlarda, blokcheyn orqali kriptovalyuta o'tkazmalari bilan bog'liq muammolarga yechim topishda alternativ yo'l tutish imkonini berish maqsadida elektron pul o'tkazmalari (EFT) va pul o'tkazish tizimlariga qiyosiy tahlil qo'llaniladi. Mazkur ilmiy ish ushbu sohada davom etayotgan ilmiy munozaralar va huquqiy islohot loyihalariga yangi nuqtai nazar bilan hissa qo'shishni maqsad qiladi.

XVI asrda ilk bora bank tizimi paydo bo'lgan davrdan boshlab, naqd pulsiz to'lovlar mahalliy va xalqaro miqyosda an'anaviy ravishda banklar tomonidan, to'lovchi va to'lovni qabul qiluvchilar

o‘rtasida vositachi sifatida amalga oshirib kelinadi. Bu jarayon bankdan-bankka (interbank) mablag‘ o‘tkazmalari shaklida bank hisobvaraqlari orqali bajarilib, banklar tomonidan markaziy reyestrlarda qayd etib borilgan.[10] Bitcoin tomonidan yaratilgan tizim zamonaviy to‘lov tizimlarini tubdan o‘zgartirdi, chunki u markazlashuvdan markazlashmagan boshqaruvga va vositachilikdan vositachiliksiz to‘lov mexanizmiga o‘tish imkoniyatini amalda namoyish etdi.

Tarqatilgan reyestr texnologiyasi (DLT) yoki blokcheyn asosida yaratilgan kriptovalyutalar va boshqa raqamli aktivlarga nisbatan, quyida IV qismda beriladigan xalqaro xususiy huquqiy tahlilga ko‘maklashish uchun **ikki jihatni** alohida ta‘kidlash maqsadga muvofiqdir. **Birinchi**dan, reyestr tizim ishtirokchilari o‘rtasida taqsimlangani bois, u yagona bir joyda mavjud emas. Bunga qo‘shimcha ravishda, DLT yoki blokcheyn tizimga haqiqiy xalqaro xarakter bera olishi sababli, tarqatilgan reyestr yoki blokcheynni hamda unda raqamli tarzda qayd etilgan aktivni aniq bir hudud bilan bog‘lash murakkablik tug‘diradi. Xalqaro xususiy huquq nuqtayi nazaridan, bu holat amalda reyestr va unda qayd etilgan aktivni, qo‘llaniladigan huquqni aniqlash maqsadida reyestr yoki blokcheyn va aktivning joylashuvi kabi bog‘lovchi omillar asosida sun‘iy ravishda muayyan joyga nisbat berilishiga olib kelishi mumkin. **Ikkinchi**dan, tizimlarda psevdonimlik mavjudligi sababli, ishtirokchilarning haqiqiy shaxslari oshkor qilinmaydi va noma‘lum bo‘lib qoladi. Xalqaro xususiy huquq nuqtayi nazaridan, bu holat amaldagi xalqaro xususiy huquq normalarida talab etilganidek, ishtirokchilarni va ularning joylashuvini aniqlash jarayonida, qo‘llaniladigan huquqni belgilash uchun ma‘lum qiynchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin.

Blokcheyn asosida ishlaydigan kriptovalyuta tizimlarida har bir tizim ishtirokchisi ma‘lumotlarni shifrlash uchun ishlatiladigan ochiq kalit va ma‘lumotlarni shifrdan chiqarish uchun ishlatiladigan yopiq kalit juftligiga ega bo‘lib, bu kalitlar blokcheyn orqali kriptovalyutalarni o‘tkazishni ta‘minlaydi. Tranzaksiyalar ishtirokchilarning raqamli hamyonlari o‘rtasida amalga oshiriladi.[11] Har bir foydalanuvchining bankdagi hisob raqami orqali mablag‘ yuborish va qabul qilish, hamda hisobga kirishda foydalanuvchi nomi va parol ishlatilishi kabi, ushbu tizim ham tashqi ko‘rinishidan bank hisobiga o‘xshashdir. Biroq kriptovalyuta tizimlarining tuzilishi hamda kriptovalyuta o‘tkazmalari tarqatilgan reyestrlar orqali amalga oshirilishi va qayd etilishi zamonaviy to‘lov tizimlari va odatiy mablag‘ o‘tkazmalari markaziy reyestrlar orqali qayd etilishidan tubdan farq qiladi.[12]

Odatda **elektron mablag‘ o‘tkazmalari** (EFT) banklar tomonidan va alohida bank hisobvaraqlari o‘rtasida amalga oshiriladi. Mablag‘ bir hisobdan ikkinchi hisobga bitta hisobdan ma‘lum summani yechib olish (debetlash) va ikkinchi hisobga shu summani kiritish (kreditlash) orqali o‘tkaziladi. Bu jarayon texnik jihatdan ichki EFTlarda ham, xalqaro EFTlarda ham mohiyatan bir xil. Ular o‘rtasidagi asosiy texnik farq shundaki, xalqaro EFTlarda ishtirok etuvchi banklar soni ko‘proq bo‘ladi, bu esa qo‘shimcha banklararo segmentlarni kiritadi. An‘anaviy xalqaro EFTlarda to‘lovchi va to‘lov oluvchining banklariga qo‘shimcha ravishda, odatda bir yoki bir nechta korrespondent banklar hamda ko‘pincha ichki EFTlarda ishtirok etuvchi markaziy bank bo‘ladi. Banklararo to‘lovlar kliring va hisob-kitob orqali amalga oshiriladi. Bu jarayon ikki bank o‘zaro hisobvaraqlar yuritadigan ikki tomonlama asosda yoki umumiy korrespondent bank yoki markaziy bankning hisobvaraqlarida yuritiladigan ko‘p tomonlama asosda bajarilishi mumkin. Shunday qilib, zamonaviy to‘lov tizimlari to‘liq markazlashuv va vositachilikka asoslangan bo‘lib, bunda banklar ishonchli uchinchi tomon/vositachi sifatida tranzaksiyalarni bajaradi va ularni markaziy reyestrlarda qayd etadi. Boshqa tomondan, DLT yoki blokcheyn asosidagi kriptovalyuta tizimlarida markazlashuv talab qilinmaydi, chunki reyestr tizim bo‘ylab ishtirokchilar orasida taqsimlangan va ularga umumiy tarzda foydalanish imkoniyati berilgan. Shuningdek, vositachilik ham talab qilinmaydi, chunki tranzaksiyalar sof peer-to-peer asosida, ya‘ni kriptovalyutalar bevosita bir ishtirokchidan boshqasiga o‘tkaziladi va tizimdagi boshqa ishtirokchilar — masalan, majburiy tasdiqlovchi sifatida mainyerlar yoki ishonchli tugunlar — tomonidan tasdiqlanadi. Bunday tizimlar tarqatilgan reyestrlarga va vositachiliksiz ishlashga asoslanadi.[13]

Xalqaro xususiy huquq nuqtayi nazaridan, II qismda qayd etilgan tarqatilgan tizimlarning joylashuvini aniqlashdagi murakkabliklar va psevdonimlikdan tashqari, vositachiliksiz ishlash (disintermediation) ham blokcheyn orqali amalga oshiriladigan kriptovalyuta o‘tkazmalariga nisbatan

qo‘llaniladigan huquqni aniqlashda muayyan qiyinchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin. IV qismda batafsil tahlil qilinadiganidek, zamonaviy to‘lov tizimlarida vositachilik mavjudligi qo‘llaniladigan huquqni aniqlashda xizmat ko‘rsatuvchi yoki xarakterli ijrochini (odatda bankni) aniqlash imkonini beradi. Bu esa, bog‘lovchi omillar sifatida xizmat ko‘rsatuvchi yoki xarakterli ijrochiga asoslangan kollizion normalarni qo‘llashga yordam beradi. Kriptovalyuta o‘tkazmalarida esa, vositachilik mavjud bo‘lmagani sababli, bunday aniq xizmat ko‘rsatuvchi yoki xarakterli ijrochi odatda aniqlanmaydi. Bu holat, xizmat ko‘rsatuvchi yoki xarakterli ijrochiga asoslangan kollizion normalarni talqin qilishni qiyinlashtirishi yoki muayyan holatda ularni qo‘llash imkonini butunlay istisno qilishi mumkin.

Kriptovalyuta transferining xalqaro xarakterini aniqlashdan keyingi bosqich — bu kollizion huquq tahlilida qo‘llaniladigan tasniflash (klassifikatsiya yoki kvalifikatsiya) bo‘lib, u orqali qo‘llaniladigan huquq aniqlanadi. Kriptovalyutalarni huquqiy tasniflash masalasi hozirda bahsli masalalardan biridir. Ayrim olimlar kriptovalyutalarni pul, ashyo/mulk, yoki talab huquqi (claim) sifatida — va ushbu talab huquqi sessiya (assignment) yo‘li bilan o‘tkazilishi mumkin bo‘lgan obyekt sifatida — tasniflash mumkinligini ta’kidlaganlar.[14] Har bir tasniflash turi kriptovalyuta transferlariga qo‘llaniladigan huquqni turlicha belgilashi va yangi savollar hamda noaniqliklarni yuzaga keltirishi mumkin. Pul sifatida tasniflash Kriptovalyutalarni pul sifatida tasniflashi **lex monetae** qoidasini qo‘llashdagi noaniqliklarni keltirib chiqaradi. **Lex monetae** — bu qarz qaysi davlat valyutasida ifodalangan bo‘lsa, o‘sha davlat huquqini qo‘llashni nazarda tutadigan qoida bo‘lib, pul va valyutaga oid munosabatlarga keng tatbiq etiladi.[15] Ushbu qoida pul emissiyasini davlat suverenitetining ifodasi sifatida qaraydi va xususiy tartibda chiqarilgan kriptovalyutalarni qamrab olmaydi. Shunday qilib, chiqaruvchi davlati bo‘lmagan, xususiy tartibda yaratilgan va davlat tomonidan kafolatlanmagan kriptovalyutalarga **lex monetae** qo‘llanish doirasiga ega emas. Biroq, dunyoda birinchi bo‘lib El-Salvadorning Bitcoin’ni[16] qonuniy to‘lov vositasi sifatida qabul qilishi, undan so‘ng Markaziy Afrika Respublikasining ham shunday qaror qabul qilishi, davlat tomonidan kafolatlangan bo‘lsa-da, xususiy ravishda chiqarilgan kriptovalyutalarga **lex monetae** qo‘llanishi mumkinmi degan savolni keltirib chiqardi. Bu borada yakdil javob hali mavjud emas.

Ashyo/mulk sifatida tasniflash Kriptovalyutalarni ashyo yoki mulk sifatida tasniflash **lex situs** qoidasini qo‘llashdagi noaniqliklarga olib keladi. **Lex situs** — xalqaro mulk huquqida asosan qo‘llaniladigan va mulk joylashgan davlat huquqini nazarda tutadigan qoidadir. Bu yerda asosiy muammo — blockchain yoki tarqatilgan reyestrning (yoki unda qayd etilgan aktivning) joylashuvini aniqlash mushkulligidir.

Odatda, jismoniy joylashuvi bo‘lmagan boshqa nomoddiy obyektlar (masalan, pul qarzlari, aksiyalar, da’vo huquqlari, intellektual mulk) uchun kollizion huquqda ularni “**fictional legal situs**” asosida sun’iy tarzda ma’lum bir joyga bog‘lash amaliyoti mavjud. **Fictional legal situs** – amaliyotda mulk yoki huquqning ‘joylashgan joy’ini real geografik holatga emas balki qonunda belgilangan yoki shartnomada sun’iy tarzda belgilangan manzilga bog‘lash tushunchasi.[17] Ammo kriptovalyutalar uchun bunday huquqiy yechimlar hali ishlab chiqilmagan, chunki ular boshqa nomoddiy obyektlardan farqli ravishda global tarzda tarqatilgan blockchain tarmog‘ida mavjud bo‘ladi. Buyuk Britaniyada kriptovalyutaning **situs** masalasi ilk bor *Ion Science Ltd v Persons Unknown*[18]ishida ko‘rib chiqilgan va u kriptovalyutani egasi (yuridik shaxs yoki jismoniy shaxs) domicile ya’ni doimiy yashash joyiga bog‘lash orqali talqin qilingan.[19] *Keyinchalik Fetch.AI Ltd v Persons Unknown* ishida ham shu yondashuv qo‘llangan. Yaqinda *Tulip Trading Ltd v Bitcoin Association for BSV & Ors* ishida esa Angliya Oliy sudi kriptovalyutaning situsini egasining doimiy yashash joyi yoki biznes yuritish joyi bilan bog‘lash mumkinligini bildirdi. Har uchala holatda ham gap Bitcoin haqida borgan.

Talab huquqi sifatida tasniflash Kriptovalyutalarni sessiya yo‘li bilan o‘tkazilishi mumkin bo‘lgan talab huquqi sifatida tasniflash da’vo huquqlarining o‘tkazilishi bo‘yicha kollizion qoidalar (masalan, Roma I Reglamentining 14-moddasi) qo‘llanishi masalasini keltirib chiqaradi.

Ammo, amalda bu qoidalar kriptovalyuta transferlariga deyarli tatbiq etilmaydi, chunki ko‘pchilik holatlarda kriptovalyuta operatsiyalari huquqiy majburiyatdan kelib chiqadigan an’anaviy “talab” tushunchasini o‘zida mujassam etmaydi.

Tizim ishtirokchilari o'rtasidagi munosabatlarga tatbiq etiladigan huquq. Shu bois, qat'iy yuridik ma'noda, Rim I reglamentining 14-moddasida nazarda tutilgan "o'tkazilgan (topsilgan) talab"ni tartibga soluvchi huquq ham, "topsilgan qarzdor" ham mavjud bo'lmashligi mumkin.

Ko'rib turganimizdek, yuqorida bayon etilgan kvalifikatsiyalash (xarakterizatsiya) yondashuvlari kriptovalyutalarga nisbatan qo'llanganda ayrim kamchiliklarga ega. Bunday yondashuvlar nafaqat kriptovalyuta o'tkazmalariga tatbiq etiladigan huquqni aniqlashdagi qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi, balki natijada reyestr (ledger) yoki blokcheyn bir butun tizim sifatida yagona huquq tartibida bo'lish o'rniga, turli qismlari bo'yicha turli huquqlarga bo'linib ketishi mumkin. Shunday bo'lsa, bir kriptovalyuta tizimida turli o'tkazmalar turli davlatlarning huquqi bilan tartibga solinadi, bu esa ishtirokchilar o'rtasidagi ko'p tomonlama bitimlarni amalga oshirishga xizmat qiluvchi tizimlar uchun odatda ma'qul bo'lmagan holatdir.

Shu sababli, kriptovalyuta o'tkazmalarini kvalifikatsiyalash bo'yicha, tatbiq etiladigan huquqqa ta'sirini hisobga olgan holda, muqobil yondashuv zarur. Bunday yondashuv elektron pul o'tkazmalari (EFT)ga o'xshatish orqali ishlab chiqilishi mumkin. Kvalifikatsiyaga qarab, EFTni "yagona yondashuv" (unitary approach) asosida bitta bitim sifatida yoki "segmentli yondashuv" (segmented approach) asosida ketma-ket ikki tomonlama amaliyotlar majmuasi sifatida ko'rish mumkin. To'lovchi va to'lov oluvchi nuqtayi nazaridan bu, albatta, bank hisobvarag'ini kreditlash va debetlash orqali amalga oshiriladigan bitta bitimdir. Biroq, ushbu o'tkazmada ishtirok etayotgan banklar nuqtayi nazaridan, bu bir nechta alohida to'lov topshiriqlaridan iborat jarayon bo'ladi.

Yagona yondashuv barcha o'tkazmaga bitta huquqni tatbiq etishni ta'minlaydi, segmentli yondashuv esa o'tkazmaning turli qismlariga turli huquqlarni qo'llash imkonini beradi. Ushbu kvalifikatsiya kriptovalyuta o'tkazmalariga ham analogiya asosida moslashtirilishi mumkin: agar imkon bo'lsa, butun kriptovalyuta tizimini yagona huquq ostida ko'rib chiqish (yagona yondashuv) yoki aks holda, har bir o'tkazmani alohida huquqqa bo'ysundirish (segmentli yondashuv).

Xulosa

Ushbu tizimni tartibga soluvchi huquq, tizimning ichki kelishuv qoidalari yoki protokollari orqali barcha ishtirokchilar uchun majburiy bo'lgan huquqni tanlash sharti ya'ni **choice of law clause** bilan belgilanadi. Agar huquq tanlanmagan bo'lsa, u holda ushbu tizimga egalik qiluvchi yoki uni boshqaruvchi kompaniya mavjud bo'lsa — u joylashgan davlat huquqi qo'llanilishi ehtimoli yuqori bo'ladi. Bu — xizmat ko'rsatuvchi provayderning huquqi, xarakterli ijrochi (characteristic performer) joylashgan mamlakat huquqi yoki tizim bilan eng yaqin aloqaga ega bo'lgan davlat huquqi bo'lishi mumkin. Bunda forumning shartnomaviy munosabatlarga oid kollizion normalari asosiy o'rin tutadi. Agar tizim egasi yoki operatori mavjud bo'lmasa, butun tizimni, jumladan, uning ichidagi barcha transferlarni qamrab oluvchi muammolarga yagona huquqni tatbiq etish qiyinlashadi. Bunday hollarda segmentlangan yondashuv (segmented approach) ma'qulroq bo'lishi mumkin, ya'ni butun tizimning o'ziga emas, balki alohida, individual transferlarda paydo bo'lgan muammolarga nisbatan tatbiq etiladigan huquqni aniqlash maquldir. Bu esa, blokcheyn yoki reyestrning qo'llaniladigan huquq bo'yicha "bo'linishiga" olib keladi. Har bir transferga o'zining tegishli huquqi tatbiq etilishi mumkin. Bu huquqni tomonlar — ya'ni, o'tkazuvchi (transferor) va qabul qiluvchi (transferee) tanlashi mumkin. Agar tanlov qilinmagan bo'lsa, tegishli huquq, agar tomonlarining joylashuvini aniqlash mumkin bo'lsa, kelishuv ularning asosiy huquqiy munosabatlari kabi tegishli aloqalarni baholash orqali belgilanadi. Biroq bu oson vazifa emas va xalqaro miqyosda qabul qilingan yagona kollizion normalar mavjud bo'lmagan sharoitda, turli sudlar bir xil transferga nisbatan turlicha huquqni belgilashi yoki "**lex fori**" (forum huquqi) yondashuvini qo'llashi mumkin. Bu esa **forum shopping** — tomonlarning ya'ni davogarlarning o'zlariga qulay va foydali bo'lgan davlat sudini yoki yurisdiksiyasini tanlash imkoniyatlarini kuchaytirishi ehtimoli mavjud. Shu nuqtai nazardan, HCCH'ning ushbu sohada olib borayotgan ishlari bunday noxush oqibatlarini kamaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, kelgusidagi texnologik yangiliklar va huquq tizimlari o'rtasidagi farqlarni moslashtirish uchun texnologik neytrallik prinsipini qabul qilish muhim bo'lsa-da, bu sohada har qanday huquqiy islohotlarda moslashuvchanlikni ta'minlash va huquqiy aniqlikni kafolatlash ham birdek ahamiyatlidir.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. For the most-up-to-date draft of the Principles, see UNIDROIT, Adoption of Draft UNIDROIT Instruments (c) Principles Digital Assets and Private Law (2023) 10-77 <www.unidroit.org/wp-content/uploads/2023/04/C.D.-102-6-Principles-on-Digital-Assets-and-Private-Law.pdf> accessed 31 July 2023.
2. Lord Collins of Mapesbury and others (n 67) para 22-025; Elizabeth Crawford and Janeen M Carruthers, *International Private Law: A Scots Perspective* (4th edn Wood Green 2015) para 17-04.
3. Callens E. Financial Instruments Entail Liabilities: Ether, Bitcoin, and Litecoin Do Not, 40 *Computer Law & Security Review* (Article 105494) (2021). <https://doi.org/10.1016/j.clsr.2020.105494>
4. De Vauplane H. Les prestataires de services sur actifs numeriques de la loi PACTE [Digital Asset Service Providers under the PACTE Law], 4 *Revue Trimestrielle de Droit Financier* 78 (2018).
5. Drummond F. Bitcoin du service de paiement au service d’investissement [Bitcoin: From Payment Service to Investment Service], 5 *Bulletin Joly Bourse* 249 (2014).
6. Garcia-Teruel R.M. & Simón-Moreno H. The Digital Tokenization of Property Rights: A Comparative Perspective, 41 *Computer Law & Security Review* (Article 105543) (2021). <https://doi.org/10.1016/j.clsr.2021.105543>
7. Geiregat S. Cryptocurrencies Are (Smart) Contracts, 34(5) *Computer Law & Security Review* 1144 (2018). <https://doi.org/10.1016/j.clsr.2018.05.030>
8. Guadamuz A. All Watched Over by Machines of Loving Grace: A Critical Look at Smart Contracts, 35(6) *Computer Law & Security Review* 1 (2018). <https://doi.org/10.1016/j.clsr.2019.105338> 0267-3649
9. Marraud des Grottes M. Bitcoin, fork et prêt: un arrêt structurant vient d’être rendu [Bitcoin, Fork and Loan: A Structuring Stop Has Just Been Made] (2020).
10. Nakamoto S. Bitcoin: A Peer-to-Peer Electronic Cash System (2009).
11. Sarnakov I. Digital Financial Assets: Segments and Prospects of Legal Regulation in the BRICS Countries, 6(4) *BRICS Law Journal* 95 (2019). <https://doi.org/10.21684/2412-2343-2019-6-4-95-113>
12. Михеева Л. Цифровые активы в системе объектов гражданских прав // *Закон*. 2018. [Mikheyeva L. Digital Assets in the System of Objects of Civil Law, 5 *Law* 16 (2018)].
13. Новоселова Л., Полежаев О. О правовом режиме объектов гражданских прав, выраженных в цифровых активах // *Закон*. 2020. № 11. С. 165–172 [Novoselova L. & Polezhaev O. On the Legal Regime of Objects of Civil Law Expressed in Digital Assets, 11 *Law* 165 (2020)].
14. [Legislation.gov.uk](http://legislation.gov.uk)
15. Satoshi Nakamoto, ‘Bitcoin: A Peer-to-Peer Electronic Cash System’ <<https://bitcoin.org/bitcoin.pdf>> accessed June 2021
16. <https://news.bitcoin.com/china-law-cryptocurrency-inheritance>
17. UNIDROIT, ‘Digital Assets and Private Law: Study LXXXII Digital Assets and Private Law Project’ <www.unidroit.org/work-in-progress/digital-assets-and-private-law/> accessed 31 July 2023.
18. Charles Proctor, *Mann on the Legal Aspect of Money* (7th edn, OUP 2012) para 1.12.
19. Yüksel Ripley and Heindler (n 12). For the lex monetae in relation to obligations denominated in Bitcoin or analogous cryptoassets, see Dickinson (n 66) 120-121.

ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

JOURNAL OF LAW RESEARCH

Taqdim etilayotgan maqolalarga qo'yilgan talablar:

1. Maqola o'zbek, ingliz va rus tillarida qabul qilinadi va Microsoft Word dasturida Times New Roman shriftida 12 kegl, 1 satr oralig'ida, sahifalar barcha tomondan 2 sm qoldirilgan bo'lishi shart. Satr boshi - 1,25 sm bo'lib, satrlarni eniga to'g'irlash, so'zlarni boshqa qatorga ko'chirish avtomatik tarzda bo'lishi lozim.
2. Birinchi qator o'ng tomondan muallifning familiyasi, ismi va otasining ismi, ikkinchi qatorda muallifning ish joyi, lavozimi, ilmiy darajasi va unvoni va e-mail, uchinchi qatorda sahifaning o'rtasida bosh va qalin harflar bilan maqolaning nomi yoziladi. Ushbu ma'lumotlar o'zbek, ingliz va rus tillarda berilishi lozim.
3. Keyingi qatordan o'zbek, ingliz va rus tillarida kamida 60 ta o'zbek, ingliz va rus tillarida so'zdan iborat annotatsiya beriladi.
4. Keyingi qatordan 6-10 ta o'zbek, ingliz va rus tillarida kalit so'zlar beriladi.
5. Keyingi qatordan asosiy matn umimiy so'zi minimal 2000 ta bo'ladi.
6. Adabiyotlarning to'liq ro'yxati asosiy matndan so'ng alifbo tartibida ko'rsatilishi lozim va havolalar asosiy matnda bo'lishi kerak [1, B.25].
7. Maqolada keltirilgan dalillarning to'g'riligi uchun muallif mas'ul, plagiat holati taqiqlanadi.
8. Web of science, Scopus tizimidagi jurnallardan iqtiboslar olish maqsadga muvofiqdir.

Требования к оформлению научной статьи:

1. Статья принимается на узбекском, английском и русском языках и должна быть оформлена в Microsoft Word шрифтом Times New Roman, размер 12, межстрочный интервал — 1, поля со всех сторон — 2 см. Абзацный отступ — 1,25 см; выравнивание по ширине и переносы слов должны быть включены автоматически.
2. В первой строке справа указываются фамилия, имя и отчество автора; во второй строке — место работы автора, должность, ученая степень и звание, а также e-mail; в третьей строке по центру страницы крупным и жирным шрифтом — название статьи. Эти сведения должны быть приведены на узбекском, английском и русском языках.
3. Ниже дается аннотация на узбекском, английском и русском языках, содержащая не менее 60 слов на каждом языке.
4. Далее приводятся 6–10 ключевых слов на узбекском, английском и русском языках.
5. Далее основной текст: общий объем текста должен быть не менее 2000 слов.
6. Полный список литературы должен быть приведен после основного текста в алфавитном порядке; ссылки должны присутствовать в основном тексте в формате [1, C.25].
7. Автор несет ответственность за достоверность приведенных в статье доказательств; плагиат запрещен.
8. Рекомендуется цитирование журналов из база данных Web of Science и Scopus.

Requirements of the articles submitted:

1. Articles are accepted in Uzbek, English and Russian and must be prepared in Microsoft Word using Times New Roman font, size 12, single line spacing, with 2 cm margins on all sides. First-line indent is 1.25 cm; text should be justified and word hyphenation/line breaks set to automatic.
2. In the first line on the right: the author's surname, given name and patronymic; in the second line: the author's affiliation, position, academic degree and title, and e-mail; in the third line centered on the page: the article title in bold and uppercase (or bold). These details must be provided in Uzbek, English and Russian.
3. Next, provide an abstract in Uzbek, English and Russian of at least 60 words in each language.
4. Next, provide 6–10 keywords in Uzbek, English and Russian.
5. Next, the main text: total word count must be at least 2000 words.
6. The full list of references must appear after the main text in alphabetical order, and citations should appear in the main text in the format [1, P.25].
7. The author is responsible for the accuracy of the evidence presented in the article; plagiarism is prohibited.
8. It is advisable to include citations from journals indexed in Web of Science and Scopus.